

LOKLI MINIATYURA SAN’ATINING SHAKLLANISH TARIXI VA O’ZIGA XOS BADIY USLUBI

Qarshiyeva Dilshoda Yalgash qizi

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lokli miniatyura san’atining shakllanish tarixi va o’ziga xos badiiy uslubi, miniatyuraning o’qitilishining hozirgi holati, rivojlanishi haqida nazariy ma’lumot keltrilgan.

Kalit so’zlar: miniatyura, lokli miniatyura, hunarmandchilik, amaliy san’at, tarix, tasvir.

HISTORY OF THE FORMATION OF LACQUER MINIATURE ART AND ITS OWN ARTISTIC STYLE

ABSTRACT

This article provides theoretical information about the history of the formation of lacquer miniature art and its unique artistic style, the current state and development of miniature teaching.

Keywords: miniature, lacquered miniature, crafts, applied art, history, image.

KIRISH

“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”

O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimov

Ma’lumki, tariximiz va madaniyatimizni ifoda etadigan moddiy va madaniy boyliklarimiz muhim tarbiya vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan

yaratilgan moddiy-ma'naviy boyliklar bitmas-tuganmas xazina, yoshlar ongiga singdiriladigan, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalaydigan bebaho omillardir.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: “Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi”, degan so'zlari boy merosimizga qanday munosabatda bo'lish kerakligini ko'rsatib beradi.

Kelgusida farzandlarimiz, ozod va obod vatanimizning yuksak ma'naviyatli, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini avaylaydigan, tariximizni ulug'laydigan, barkamol shaxslar bo'lib yetishishlari darkor. Kelajak avlodimiz ma'naviyati va tafakkurini yuksaltirishda xalq amaliy san'ati darsliklarining o'rni beqiyosdir.

Xalq amaliy san'ati kasb-hunar ta'limi fanlari orasida o'quvchilarni ma'naviy sog'lom, komil insonlar bo'lib yetishishlarida keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Shu bois ham amaliy san'at turlaridan bo'lmish miniatyuraning lokli miniatyura san'ati tarixi va xalq hunarmandchilikdagi o'rni haqida nazariy ma'lumotlar to'plab o'rganishni maqsad qildik.

Amaliy san'at asarlarini o'rganish inson aql idrokining kengaytrib uning tevarak atrof munosabatini ustiradi. Miniatyura san'atini o'rganish iqtidorli va estedodli yoshlarni shakllanuvi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shu kabi kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni oshiradi. Tarixiga, milliy urf-odatlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi va uni ulug'laydi. Shu sabab ham bugungu kunda yoshlarni sabr toqatli, chidamli bo'lishlarida, ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida, yetishib kelayotgan yosh-yigit qizlarga milliy ruhda ta'lim tarbiya berishi bo'lajak o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yana shunday degan edilarki: “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyatlar paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan

yo‘limizni tanqidiy baholab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o‘tmishdagi boy an‘analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog‘imiz kerak”.⁷

ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xo‘sh, lokli miniatyura san‘ati o‘zi nima? Keling, lokli miniatyura san‘atining kelib chiqish tarixiga nazar solib, ushbu san‘at haqida o‘rganib olamiz.

Lokli miniatyura – yog‘och, metall, mag‘zi soxta (papyemashe) dan ishlanib, usti lok bilan qoplangan bezakli buyumlar; ko‘pincha bo‘rtma, o‘yma, qadama, chizma naqshlar bilan bezatiladi. Lokli miniatyuraning asosiy xususiyati — sillits tekis yuzaning tiniq jilvasi, zamin ranglari, tasvir va inkrustatsiya keskinligi, o‘yma bezaklarda jozibali nursoya o‘yini, shaklining yorqinligidadir.

Xitoyda miloddan avvalgi 2-ming yillikdan ma‘lum (kosa, ko‘za, quticha, pardozi idishchalari va boshqalar), ayniqsa, ko‘p tabaqali o‘yma, qora yoki rangli zaminga bo‘yoqlar, tilla bilan ishlangan tasvirlar, sadaf, kumush va boshqa qadab bezatilgan (sirti lok daraxti sharbati bilan pardozlangan) buyumlar keng tarqalgan. Buyumlarning bezak mujassamotlarida manzara, gullar, maishiy lavhalar ko‘p uchraydi. Lokli miniatyura Koreya, Yaponiya, Hindixitoy mamlakatlarida shuningdek, Vyetnam, Laosda ham keng tarqalgan. 15—17-asrlarda Eron, Hindiston, Markaziy Osiyo (Hirotda), ayniqsa, tempera bilan ishlangan mag‘zi soxtadan yasalgan buyumlar mashhur bo‘lgan. Hindiston Lokli miniatyura buyumlariga odamlar, qushlar shakllari tushirilgan. 15—16-asrlarda yaratilgan qo‘lyozma kitoblar muqovalarida turli mavzuda yaratilgan Lokli miniatyuralar uchraydi. Masalan, Alisher Navoiy devoni qo‘lyozmalari muqovalari bunga yaqqol misoldir.

Lokli miniatyura 15—17-asrlarda Sharqdan Hindiston, Eron, Markaziy Osiyo orqali Yevropaga kirib kelgan, 18-asrda rivojlangan: Fransiyada "Marten" firmasi, Germaniyada Lokli miniatyura fabrikalarining miniatyuralar bilan bezatilgan

⁷ I.A.Karimov: O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyilari, -T.: “O‘zbekiston”; 1995. - 9 b.

buyumlari (tamakidon, quticha va boshqalar) usuli va badiiy mahorati bilan ajralib turadi; 18-asrdan Rossiyada ham yog‘och, papye-mashe, metall buyumlarga moybo‘yoq bilan tasvir ishlash va uni loklash an‘anasi rivojlangan.

Markaziy Osiyoda, jumladan Buxoroda 16-asrda Lokli miniatyura mavjud bo‘lganligi va badiiy buyumlar tayyorlanganligi haqida ma‘lumotlar saqlangan.⁸

O‘zbekistonda miniatyura san‘ati keng ko‘lamda va izchil rivojlanishi 20-asr 70-yillariga to‘g‘ri keladi. Kitobat san‘ati qayta tiklash uchun olib borilgan harakatlar samarali yakunlandi. 1991-yildan Lokli miniatyura amaliy san‘atning keng tarqalgan turlaridan biriga aylandi. Mag‘zi soxtadan qilingan buyumlarni badiiy bezatishda naqsh mujassamotlarida yozuvlardan foydalanish, o‘rta asr miniatyurasi an‘analariga tayanish muhim natijalar berdi. An‘anaviy mavzularda asarlar yaratish, shu bilan birga bu mavzular asosida erkin mujassamotlar ham yaratishga intilish kuzatiladi.

Bugungi kunda miniatyurachilarimiz milliy va xorijiy ko‘rgazmalarning faol ishtirokchilari bo‘lib, ularning asarlari ko‘plab mahalliy va xorijiy muzeylarda va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. Bular Shomaxmud Muxamedjanov, Niyozali Xolmatov, Davron Toshev, Munira Satibaldieva, Muzaffar Po‘latov, Vladimir Lugovskoy, Olim Kamolov, ota va o‘g‘il Bahodir va Behzod Xodimetovlar va boshqalardir. Miniatyura san‘ati namunalari (Dehlaviviy, Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Bobur, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari misolida) hozirgi kunda ular Nyu-york-metropolitan muzeyi, Parij – Fransiya milliy kutubxonasi, London – Britaniya muzeyi, Sankt-Peterburg – Ermitaj, Hindiston, Turkiya muzeyi va kutubxonalari, Toshkent Sharqshunoslik kutubxonasi kabi yirik muzeylarda saqlanib kelinmoqda.

Zamonaviy miniatyura O‘zbekiston madaniyati va san‘atining ajralmas qismiga aylangan. O‘zbek miniatyurachilari asarlari yuqori mahorat va didni, nostandart kompozitsion yechimlarni, materiallarni izlashni, mavzuni dolzarblashtirish qobiliyatini o‘z ichida birlashtiradi.⁹

⁸ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁹ “Miniatyura: uzoq tarixga ega bo‘lgan san‘at”. Zuxra Rahimova Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Museyshunoslik kafedrasi professori, san‘atshunoslik fanlari nomzodi.

XULOSA

Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratilgan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash — davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada xalqimiz o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy qadriyatlar va madaniyat sohibiga aylandi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston miniatyura san‘ati yanada rivojlandi, bu sohada ko‘plab musavvirlar yetishib chiqdi va yoshlarga mumtoz tasviriy san‘at sirlarini o‘rgatib kelmoqdalar. Miniatyura sanati yo‘nalishida ijod qilayotgan yosh istedodlarimiz ham yuqori natijalarga erishmoqdalar.

Shulardan biri Respublika rassomlik kollejinig lok miniatyura bo‘limi o‘quvchisi Gulhayo Abdullayeva o‘z ijodiy ishlari bilan Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi va K. Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn 4 institutiga imtiyozli qabul qilindi. ¹⁰Mumtoz tasviriy san‘atimiz hozirgi kunda qanchalik qadrlanayotganligi, buning uchun esa yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratilganligini O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirlarda namoyon bo‘lmoqda.

Xullas, buyuk ajdodlarimizdan yetib kelgan ma'naviy meros, ko'hna tarixiy yodgorliklar, ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar sifatida biz tarbiyalayotgan yoshlarni ma'naviy jihatdan, ayniqsa, estetik jihatdan tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Karimov I.A.. “Yuksak ma‘naviyat engilmas kuch” T. Ma‘naviyat 2008. 29-30 betlar.

¹⁰ M.Eshnazarova Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi. “Tasviriy san‘at darslarida sharq miniatyurasiga oid mavzularining o‘qitilishi”

2. Karimov. I.A Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. –T.: SHarq, 1997.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. – 2009-y.

4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O‘zbekiston, 2000. -112 b.

5. Karimov I.A.O‘zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari .-T: O‘zbekiston, 1995 .

6. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.: Mehnat, 1991.

7. S.S.Bulatov, O‘.Mansurov. Milliy me’morchilikda amaliy san’at falsafasi. – T.: Fan, 2005.

8. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan minatyuralar. Sharq. T. 2001.

9. R.Xasanov. Tasviriy sanat asoslari. T.2009.

10. R.Xasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. T.2004.

11. Sh.Shoyoqubov. Zamonaviy O‘zbekiston miniatyurasi. T. 2006.

12. O‘zbekistonda fan, ta’lim va yoshlar tabiyasidagi innavatsion jarayonlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi-2015. 280-282 betlar.

13. N. Jo‘rayev, T. Fayzullayev. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T., 2019.

14. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

15.“Miniatyura: uzoq tarixga ega bo'lgan san'at”. Zuxra Rahimova Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Museyshunoslik kafedrasida professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi.

16. M.Eshnazarova Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi. “Tasviriy san’at darslarida sharq miniatyurasiga oid mavzularining o‘qitilishi”